O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026-yil “4”-iyun **229-son** **Toshkent shahri**

2026/2027-o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim tashkilotlariga qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF–81-son Farmoni, “Davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 18-iyuldagi F–43-son farmoyishi va “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda respublika oliy ta’lim tashkilotlarida 2026/2027-o‘quv yilida talabalar qabulini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmoniga asosan 2026/2027-o‘quv yili uchun O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik komissiyasi) **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlik komissiyasiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

davlat oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat va magistraturasiga qabul natijalarini tasdiqlash;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun kontrakt to‘lovlarini amalga oshirish va ularni talabalikka qabul qilish bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirishning so‘nggi muddatini belgilash;

bo‘ysunuvidan qat’i nazar bir davlat oliy ta’lim tashkilotidan boshqasiga talabalar o‘qishini ko‘chirish to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish va o‘qishini ko‘chirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida tavsiya berish;

amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq imtiyozga ega abituriyentlarni davlat oliy ta’lim tashkilotlariga talabalikka tavsiya qilish;

xorijiy davlatlar fuqarolari, jumladan, xorijdagi vatandoshlar uchun ajratilgan grant o‘rinlariga talabalikka tavsiya etish.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida “Qabul-2026” shtabi (keyingi o‘rinlarda – “Qabul-2026” shtabi) tashkil etilsin va uning tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. “Qabul-2026” shtabiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

a) oliy ta’lim tashkilotlarida qabul jarayoni yuqori saviyada, shaffof va adolatli o‘tishi uchun barcha tashkiliy choralar ko‘rish;

b) qabul jarayonlarini tashkil etilishini ta’minlash va muvofiqlashtirib borish, jumladan:

alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga talabalarni qabul qilish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonlarini;

ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga qabul jarayonlarini;

magistratura mutaxassisliklariga qabul jarayonlarini;

texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida qabul jarayonlarini;

iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni suhbat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida qabul jarayonlarini;

d) oliy ta’lim tashkilotlari qabul komissiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish;

e) qabul jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va kamchiliklar hamda qabul natijalari yuzasidan Vazirlik komissiyasiga axborot kiritib borish.

5. Magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga kirish uchun ro‘yxatdan o‘tgan talabgorlarning xorijiy tilni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarini tekshirish bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ishchi guruhi tarkibi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik ishchi guruhi) **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Vazirlik ishchi guruhi (O.Davranov) 2026/2027-o‘quv yilida davlat oliy ta’lim tashkilotlarining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga kirish uchun my.edu.uz maxsus elektron platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tgan talabgorlarning xorijiy tilni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarining belgilangan talab darajasiga muvofiqligi hamda haqqoniyligini ko‘rib chiqsin. Bunda:

muddati cheklanmagan (belgilanmagan) xorijiy tilni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar olingan kundan boshlab uch yil muddatga amal qilishi;

amal qilish muddati 2026-yil 1-iyul (magistratura mutaxassisliklariga abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazishning boshlanish sanasi) va undan keyingi sanalar bo‘lgan milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar inobatga olinsin.

7. Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti (A.Mamanazarov) qabul jarayonlarini samarali va sifatli tashkil etish maqsadida oliy ta’lim tashkilotlarining tajribali hamda malakali xodimlarini jalb etish choralarini ko‘rsin.

8. Oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari):

a) 2026-yil 1-iyulgacha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkaziladigan hududlar, bino va auditoriyalarni belgilasin, tayyor holatga keltirsin, to‘liq videokuzatuv kameralari bilan ta’minlasin hamda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish bo‘yicha mas’ullar tarkibini tasdiqlasin;

b) 2026/2027-o‘quv yili qabulini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini **3 kun muddatda** ishlab chiqib tasdiqlasin va ijroga yo‘naltirsin;

d) oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qabul komissiyalari tarkibining har bir a’zosiga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida bajarilishini ta’minlasin;

e) kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradigan abituriyentlar haqida ma’lumotlar tayyorlash, ijodiy imtihonlar natijalarini rasmiylashtirish, jamlash hamda taqdim etishga mas’ul va ijrochi xodimlarga yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar oqibati va javobgarligi to‘g‘risida batafsil tushuntirish va yo‘riqnomalar berishni tashkil etsin;

f) Vazirlar Mahkamasining “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 11-yanvardagi 17-son qaroriga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish jarayonini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida:

oliy ta’lim tashkiloti qabul komissiyasi mas’ul kotibining alohida o‘rinbosari rahbarlik qiluvchi ishchi guruhini tashkil etsin va ularning asosiy vazifalarini aniq belgilab bersin;

ro‘yxatdan o‘tgan arizalarni muntazam tahlil qilib borsin va shunga muvofiq suhbat komissiyalarini tashkil etsin va ularning Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq faoliyat olib borishini ta’minlasin;

suhbat jarayoni boshlangunga qadar yuqorida keltirilgan Nizom bilan tasdiqlangan suhbat natijalarini qayd etish varaqlarini tayyorlash choralarini ko‘rsin.

g) qabul jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida oliy ta’lim tashkilotlaridan jalb etilgan xodimlarning doimiy ishtirokini ta’minlasin, ularni belgilangan tartibda rag‘batlantirib borsin hamda xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlarini ish haqi saqlangan holda asosiy ish joyi hisobidan qoplash choralarini ko‘rsin.

9. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilishda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning ro‘yxatdan o‘tishida tizimga ularning ma’lumotlarini to‘g‘ri kiritilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirsin;

oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) suhbat asosida o‘qishga qabul qilish jarayonini o‘z vaqtida va sifatli tashkil etilishi hamda shaffof o‘tkazilishi bo‘yicha shaxsiy javobgar etib belgilansin;

Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti (A.Mamanazarov) amaldagi tartibga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni 2026/2027-o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirsin.

10. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkaziladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha imtihon o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlashga mas’ul oliy ta’lim tashkilotlari **2026-yil 30-iyungacha** kasbiy (ijodiy) imtihonlar fan dasturi va baholash mezonlarini Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishini ta’minlasin va e’lon qilsin (rasmiy veb-saytga joylashtirsin).

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 3-noyabrdagi PQ–414-son qaroriga muvofiq 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallarida “Sport turining alohida yo‘nalishlari” magistratura mutaxassisligiga kamida O‘zbekiston sport ustaligiga yoki O‘zbekiston grossmeysterligiga nomzod sport razryadiga ega bo‘lgan abituriyentlar qabul qilinishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (R.Matkarimov) universitetning “71010201-Sport faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga

kirishda tanlovda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan abituriyentlarning arizalarini yuqorida qayd etilgan toifaga mansubligini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirgan holda tasdiqlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 23-iyuldagi PQ–330-son qaroriga muvofiq Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzurida Diplomatik akademiya tashkil etilganligi va unga kamida 3-yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlarni tor magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qitish Diplomatik akademiyaning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (A.Umarov) Diplomatik akademiyaning magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qishga kirishda tanlovda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan abituriyentlarning arizalarini kamida 3-yillik ish tajribasiga ega ekanligini asoslovchi hujjatlar bo‘yicha tekshirgan holda tasdiqlasin.

13. Ishlar boshqaruvchisi (Sh.Isamuxametov) **uch kun muddatda** qabul jarayonlarini samarali va sifatli tashkil etish maqsadida oliy ta’lim tashkilotlaridan jalb etilgan xodimlarni kompyuter, telefon o‘rnatilgan ish o‘rinlari hamda zarur ish yuritish uskunalari bilan ta’minlasin.

14. Raqamli ta’lim va sun’iy intellektni rivojlantirish markazi (A.Abdullayev):

magistraturaga o‘qishga kirish, ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha qabul, talabalar o‘qishini ko‘chirish, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish uchun arizalarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha maxsus elektron platformalarni uzluksiz ishlashini ta’minlasin:

arizalarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazishda maxsus elektron platformalarni texnik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha markazda “Call center” faoliyatini yo‘lga qo‘ysin hamda qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etishga jalb etilgan xodimlarni belgilangan tartibda moddiy rag‘batlantirib borish choralarini ko‘rsin.

15. Axborot xizmatlari bo‘limi (N.Abduqunduzova):

2026/2027-o‘quv yili qabulida tashkil etilayotgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borsin;

qabul jarayonlari yuzasidan yo‘riqnomalar va tushuntirishlar ko‘zda tutilgan roliklarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda oliy ta’lim tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: BG50722273

16. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir ERI orqali imzolangan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi **K. Sharipov**

WWR8845

Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin